Iste’dodli adib Omon Muxtorning “Ko‘zgu oldidagi odam” romanida tush motivi qahramon kelajagiga, aniqrog‘i, u tanlashi mumkin bo‘lgan ikki yo‘l – ezgulik va yovuzlik yo‘liga ishora qiladi. Shuningdek, personaj ruhiyatidagi qarama-qarshiliklar, ikkilanish vaziyatini ifodalab beradi. Dastavval, roman qahramoni Valijonning qanday vaziyatda, qanday ruhiy holatda tush ko‘rganiga e’tibor qaratish zarur. U Siroj muallimni – o‘lgan odamni qayta uchratib, hayratlanib, har qancha ta’qib etsa-da, bir og‘iz ham gaplasha olmay, sarosimaga tusha boshlagan. Shunday bo‘lsa-da, aql mantig‘iga ko‘ra harakatlanib, birinchi navbatda, muallim ortidan maktabga boradi, natija chiqmagach, qabrini tekshiradi, hech bir o‘zgarishsiz turgan qabrni ko‘rib ajablanadi, qo‘rquvga tushadi. Ayni shu pallada Hanifaga yo‘liqadiki, yuqorida to‘xtalganimizdek, qiz farishta, ruhiy qiynoqlardan qutqaruvchi najotkorday ko‘rinadi. Valijon shu kuni tunda iztirobli o‘ylar, ikkilanishlar vaziyatida tush ko‘radi. Bu yerda tush Valijonning shartli ravishda hoziri, ajabtovur voqealar sodir bo‘lgandan keyingi holati haqida xulosa beradi. U tushda Hanifaning qo‘lini o‘pib, ezgulik tomon yurganday, ammo Siroj muallim ham qo‘lini uzatib, o‘pishni talab qiladiki, arosatda qolgan qahramon noxush holda uyg‘onadi. Bu o‘rinda Siroj muallim harakati orqali muallif qadimdan Sharqda e‘zozlangan qadriyat – pir-murid (ustoz-shogird) munosabatini urg‘ulab ko‘rsatadi. O‘z jamiyatida kishilarning qiyofasizlashib, “maydalashib” ketishining asosiy omilini “pir” – ustoz bergan tarbiyaning oqibati sifatida ko‘radi. Bilamizki, murid o‘ziga pir deb bilgan insonning qo‘lini o‘pib, unga butun inon-ixtiyorini topshiradi. Shu ma’noda, Valijon ham Siroj muallimga qattiq ixlos qo‘ygan, shogird o‘laroq hamisha hurmat saqlagan. Ammo sodir bo‘layotgan voqealar uni o‘z o‘tmishiga tanqidiy nazar solishiga olib keladiki, oqibatda muallim bilan bog‘liq ilk taassurotlarga, avvalroq aytganimizdek, darz keta boshlaydi. Buni quyidagi o‘ylarda ham ko‘rishimiz mumkin.



“Inson har qanday sharoitda asranishi mumkin! Demak, keyingi **tarbiya**. <...> Biz yaxshi tarbiya olmaganmiz, xolos!”¹. Qahramonning bu xulosasini o‘z xohishi bilan dor ostiga borgan odam haqidagi rivoyat ham bir qadar to‘ldiradi.

“... Hech narsani eshitma!” – deyishdi. Qulog‘imga paxta tiqib oldim. “Hech narsani ko‘rma!” – deyishdi. O‘zim o‘z ko‘zlarimni bog‘ladim. “Gapirma!” – deyishdi. Tilimni tishlab yurdim. <...> Endi “... O‘ylama” – deyishyabdi. Men tirik odamman. Idrok qilmay yashayolmayman! Undan ko‘ra meni osib qo‘yaqolinglar².

Rivoyatni eshitgan Siroj muallim munosabati: “Xo‘p, o‘ylab nima qilasiz?! Biz uchun o‘ylaydiganlar bor! Yashab yuravermaysizmi?!”³, – tarzida ifodalangan. Albatta, o‘z vaqtida bu “tarbiya” minglab o‘quvchilar qatorida Valijonning ham ongu shuuriga singgan, mutlaq haqiqat sifatida qabul qilingan. Rivoyatdagi odam va Valijon ulg‘aygan muhit, undagi inson ma‘naviy qiyofasini shakllantiruvchi tashviqotlar o‘zaro parallel, syujetda avvalgisi keyingisini to‘ldiradi. Rivoyat maksimal darajada ixcham, unda qahramon tafakkurining uyg‘oq holati muhrlangan. Valijon hayotida bu vaziyat hali yetilmagan, bosqichma-bosqich shunga sari borish kuzatiladi. Orttilgan gunohlar, yo‘l qo‘yilgan xatolarni tushunib yetish barobarida fikrlay boshlaydiki, endi u ham “dor” tomon o‘z ixtiyori bilan yurib boradi.

Romandagi ikkinchi tush esa ijtimoiy tuzum bergan “tarbiya”ning achchiq mevasi to‘g‘risida o‘ylashga majbur qiladi.

“Tushimga ulg‘ayib qolgan Begona-bolam kirgan edi! U katta soch qo‘ygan; boshini egib, mendan silashimni so‘rayabdi!

Silab ko‘rsam, soch ostida bilinmay turgan – ikkita shox bor!”⁴.

Tushdagi voqea Valijon o‘ylariga uyqash; u Begona bolasini xotirlaganda yovuzlik, jaholat xayolidan ketmaydi. Soch ostidagi ikkita shox shaytonlik belgisiday tuyulib, bolaning Siroj muallimga, Iblislik o‘chog‘i bo‘lgan uning xonadoniga aloqador ekanini eslataveradi. Qahramon gunohkor bo‘lsa-da, ota sifatida o‘z bolasi bobosining (Siroj muallimning) jirkanch ishlarida davomchi bo‘lishini istamaydi. Vujudidagi eng katta qo‘rquv ham shundan. Zahhok haqidagi rivoyat Valining ayni damdagi ruhiy holatini chuqurroq tushunishga, tasavvur etishga ko‘maklashadi. Rivoyatga ko‘ra, Iblis Zahhokning muborak ikki kiftini o‘pgach, shohning yelkalaridan ikki ilon o‘sib chiqadi. “Ular Zahhokning miyasini kemirmoqchi bo‘lishar, Zahhok endi talvasaga tushgancha odamlarni so‘yib, ularning miyasi bilan ilonlarni boqib-tinchitar ekan”⁵. Mazkur rivoyat Firdavsiyning “Shohnoma”si orqali kitobxonlarga

¹ Мухтор О. Кўзгу олдидаги одам // Китобда: Мухтор О. Тўрт томон қибла. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 244.

² Yuqoridagi manba. – B.247.

³ Yuqoridagi manba. – B.247.

⁴ Yuqoridagi manba. – B.274.

⁵ Yuqoridagi manba. – B.244.



yaxshigina tanish. Shoir Faxriyorning “Zahhoklar uliydi, miyaxo‘r shoqol”⁶ satri ham assosiativ ravishda ushbu rivoyatga bog‘lanadi. Omon Muxtor qahramoni xuddi rivoyatdagi Zahhok holida; nikohsiz tug‘ilgan Begona bola uchun bir umr ruhiy azob va yurakni kemiruvchi o‘ylar bilan tovon to‘lashga majbur. Umuman olganda, syujetga singdirib yuborilgan rivoyatlar qahramoni va roman qahramoni parallel qo‘yilgan. Ijodkor unitilib borayotgan rivoyatlarni qayta jonlantirish –transformatsiya orqali, avvalo, o‘z qahramonining ichki olamini, qolaversa, butun bir davr qiyofasini yoritib bera olgan.

M.Baxtin evrilish jarayonini boshidan kechirayotgan qahramonning avantiyur zamon va maishiy makon sathi bo‘ylab asliga qarab intilishi, shu asnoda ma‘nan o‘zgarishi, o‘zini anglab borishini “Oltin eshak” asari misolida tushuntiradi. Olimning yozishicha, asar qahramonining “evrilgan qiyofadan asl qiyofaga yetib kelguncha bosib o‘tgan yo‘li sinov va o‘z-o‘zini topish yo‘li sifatida metamorfozaviy mohiyat kasb etadi”⁷. Shu ma‘noda Baxtinning Apuley yaratgan qahramon haqida chiqargan xulosasi, o‘z navbatida, Valijonga nisbatan aytilsa ham, zarracha yanglish tuyulmaydi. E‘tibor bering: “Lyusiy tushgan vaziyat zohiran qaraganda uning fojeasi bo‘lib ko‘rinsa ham, mohiyatan qahramon shu qiyofa va shunday g‘ayriinsoniy vaziyat bois tozaradi. Tamomila boshqa odamga aylanadi”⁸.

Omon Muxtor qahramoni Lyusiydan farqli ravishda botiniy evrilishni boshdan kechiradi. (Evrilish Lyusiyning tashqi qiyofasiga ta‘sir etib, u hayvon (eshak)ga aylanib qoladi) Metamorfoza badiiy matnda har ikki obrazning uch ko‘rinishini yuzaga chiqaradi. Bu Apuley asarida quyidagicha: “yengiltak, maishatga moyil Lyusiy, eshak Lyusiy va iztiroblar olovida poklangan, ko‘ngil halovatiga erishgan Lyusiy”⁹. Ushbu evrilish sxemasi “Ko‘zgu oldidagi odam” romanida o‘zgacharoq: bola Valijon (garchi u roman xronotopida bevosita ishtirok etmasa ham qahramon xayollarida bir necha bor eslanadi), Siroj muallim ta‘siri ostidagi Valijon va iymonga qaytgan Valijon.

Apuley uchun Lyusiy hayotining dastlabki bosqichi ideal emas: xulq-atvori o‘zgarishi shart. Ayni zarurat metamorfozaga yo‘l ochadi. Valijonda esa birinchi va uchinchi ko‘rinish o‘zaro yaqin: uning iymonga qaytishi mohiyatan asliga qaytishdir. Lyusiyning eshakka aylanib, odamlar tomonidan kamsitilishi, qiynoqqa solinishi, xo‘rlanishi jamiyatning asl qiyofasiga chetdan nazar tashlashi uchun omil bo‘lganidek, Valijon ham Shaytonni tanib olishi uchun evrilish yo‘lini bosib o‘tishi shart.

⁶ Фахриёр. Излам. – Тошкент: Akademnashr, 2016 – Б.258.

⁷ М.Бахтин. Романда замон ва хронотоп шакллари. У.Жўракулов таржимаси – Тошкент: Akademnashr, 2015. – Б.30.

⁸ Yuqoridagi manba. – B.30.

⁹ Yuqoridagi manba. – B.85.



O'zi aytganidek: "Xudoning borligiga ishonmagan odamgina Iblisning borligiga ham ishonmaydi!"¹⁰. Ayon bo'ladiki, metamorfoza Valijon uchun haqiqatni anglash yo'lidagi muhim bosqich edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мухтор О. Тўрт томон қибла: Уч романдан иборат Шарқ дафтари: (Трилогия) – Тошкент: Шарқ, 2000. – 432 б.
2. Фахриёр. Излам. – Тошкент: Akademnashr, 2016 – 368 б.
3. М.Бахтин. Романда замон ва хронотоп шакллари. У.Жўракулов таржимаси – Тошкент: Akademnashr, 2015. – 288 б.
4. Қуронов Д, Шералиева М, Мамажонов З. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 406 б.
5. Йўлдошев Қ. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Kamalak, 2016. – 306 б.

¹⁰ Мухтор О. Кўзгу олдидаги одам // Китобда: Мухтор О. Тўрт томон қибла. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 298.



KASBIY TA'LIM TIZIMIDA FIZIKA FANINI O'QITISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

G'aniyeva Yulduzxon G'ofurjon qizi

Andijon viloyati Buloqboshi tumani

2-son politexnikumi fizika va astronomiya fani o'qituvchisi.

Abduvoitova Madinabonu Adxamjon qizi

Andijon viloyati Marhamat tumani

2-son politexnikumi fizika va astronomiya fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishning metodologik asoslari va dars samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari yoritilgan. Fizika ta'limini hayotiy voqeliklar bilan bog'lash, tajriba va modellashtirish orqali o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga alohida urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: fizika ta'limi, kasbiy ta'lim, o'qitish metodologiyasi, innovatsion texnologiyalar, tajriba, modellashtirish, STEAM yondashuvi, fanlararo integratsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются методические основы преподавания физики в учреждениях профессионального образования, инновационные подходы, направленные на повышение эффективности урока, и преимущества использования современных педагогических технологий. Особое внимание уделяется связи обучения физике с реальными реалиями, развитию мышления учащихся посредством экспериментирования и моделирования.

Ключевые слова: преподавание физики, профессиональное образование, методика преподавания, инновационные технологии, экспериментирование, моделирование, STEAM-подход, междисциплинарная интеграция.

Abstract: This article discusses the methodological foundations of teaching physics in vocational education institutions, innovative approaches aimed at increasing the effectiveness of the lesson, and the advantages of using modern pedagogical technologies. Particular emphasis is placed on connecting physics education with real-life realities, developing students' thinking through experimentation and modeling.

Keywords: physics education, vocational education, teaching methodology, innovative technologies, experimentation, modeling, STEAM approach, interdisciplinary integration.

KIRISH

Zamonaviy kasbiy ta'lim tizimi o'quvchilardan nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki ularni amalda qo'llay olish ko'nikmalarini ham



talab qiladi. Fizika fani esa bu borada yetakchi o'rin egallaydi. kasbiy ta'lim bosqichida fizika fanining chuqurlashtirilgan holda o'qitilishi nafaqat oliy ta'limga tayyorlov, balki ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Shu sababli, fizika ta'limining metodologik asoslarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism

1. Fizika o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullari

Kasbiy ta'lim darajasida fizika fanini o'qitishda quyidagi metodlar keng qo'llaniladi:

An'anaviy metodlar: leksiya, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi;

Zamonaviy metodlar: muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, aks ettiruvchi (reflektiv) ta'lim, raqamli simulyatsiyalar asosida o'qitish.

Bugungi kunda an'anaviy yondashuvlar innovatsion usullar bilan uyg'unlashgandagina yuqori natijaga erishish mumkin.

2. Tajriba va modellashtirish metodlari

Fizika fanining asosiy ustunligi – bu eksperimental yo'nalishdir. Litseylarda amaliy laboratoriya mashg'ulotlari yordamida o'quvchilarda: kuzatish, o'lchash, nazoratli tajriba olib borish, xulosalash kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida tajribalarni virtual modellashtirish (PhET, Algodoo, Labster kabi platformalar) orqali ham tashkil etish mumkin. Bu o'quvchilarni xavfsiz, ammo chuqur o'zlashtirishga asoslangan ta'lim bilan ta'minlaydi.

3. STEAM va fanlararo integratsiya

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi orqali fizika ta'limini real hayotiy muammolar bilan bog'lash, texnologik loyihalar yaratish, muhandislik tafakkurini shakllantirish imkoniyati tug'iladi. Masalan, fizika va informatika fanlarining integratsiyasi orqali Arduino, robototexnika yoki mikrokontrollerlar bilan ishlash ko'nikmalari berilishi mumkin.

4. Litsey o'quvchilarida motivatsiyani oshirish

Fizika faniga nisbatan qiziqishni oshirish uchun:

hayotiy misollar keltirish,

taniqli fiziklarning hayotiy yo'li haqida suhbatlar tashkil etish,

fizika bo'yicha tanlovlar va olimpiadalar o'tkazish,

laboratoriya ko'rgazmalari va ekskursiyalar tashkil etish lozim.

Bu metodlar o'quvchilarda mustaqil izlanishga va ilmga mehr uyg'otadi.

XULOSA

Fizika ta'limini kasbiy ta'lim bosqichida samarali tashkil etish uchun darslarni zamonaviy metodlar asosida olib borish, laboratoriya va modellashtirish ishlarini takomillashtirish, STEAM yondashuvini keng joriy



etish zarur. Bu esa o'quvchilarning nafaqat fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning ilmiy va amaliy salohiyatini ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukarimov A. Fizika o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Tohirov B. Fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar. – Samarqand, 2021.
3. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder. <https://phet.colorado.edu>
4. Xolmatova M. STEAM yondashuv va fizika ta'limi. // "Ilm va taraqqiyot" jurnali, 2022, №2.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "Ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha strategiya".



KOMMUNIKATSIYA VA VIRTUAL MULOQOT

Nizomova Zarifa Kamoliddin qizi

Namangan davlat universitet filologiya fakulteti

1 kurs mustaqil izlanuvchisi

e-mail:zarifanizomova801@gmail.com

Annotatsiya. Dunyo tilshunosligida, xususan, o'zbek tilshunosligida ham nutqiy muloqotning noverbal vositalari (ovozdagi turli holatlar, ishoralar, mimika va gavda harakatlari) tadqiqi tilning turli aspektlarida amalga oshirilgan. Zamonaviy hayot realiyalari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi dunyoning barcha jamiyatida muloqot o'ta erkin, kutilmagan hamda til qoidalaridan yiroqligi bilan xarakterlanadi. Bunda noverbal vositalarning o'rni har qachongidan ortgan va ular o'z zimmalariga katta pragmatik yukni ola boshladi. Ayniqsa, ularning virtual muloqotda noverbal vositalar tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmoqda.

Mazkur maqolada paralingvistik vositalar haqida qisqacha ma'lumot berilgan, hamda ularning o'rganilish darajasi va ahamiyati ochib berilgan. Murojaatda noverbal shakllari ham keng tahlil qilingan. Shuningdek, lingvistik va nolingvistik aloqalar, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir va qarama-qarshiliklar, ma'lum tas'virni yaratish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Muloqot jarayonida noverbal vositalarning xususiyatlar masalasi ham yoritilgan. Bundan tashqari, o'zbeklarda aloqa-aralashuv jarayonida qadimdan tarkib topgan va ishlatib kelinayotgan muomala shakllari ham berilgan.

Kalit so'zlar: virtual muloqot, noverbal vositalar, noverbal shakl, lingvistik va nolingvistik aloqa, jestlar, imo-ishoralar.

Аннотация. В мировой лингвистике, в частности, в узбекской лингвистике, изучение невербальных средств речевого общения (различных состояний голоса, жестов, мимики и движений тела) осуществлялось в различных аспектах языка. Реалии современной жизни свидетельствуют о том, что во всем обществе современного мира общение характеризуется крайней свободой, непредсказуемостью и далекостью от языковых правил. Роль невербальных инструментов в этом возросла, чем когда-либо прежде, и они начали брать на себя большую прагматическую нагрузку. Особенно их невербальные инструменты в виртуальном общении остаются незамеченными исследователями. В процессе общения также освещается вопрос о свойствах невербальных средств. Кроме того, в процессе общения-вмешательства у узбеков давались формы обращения, которые издавна складывались и использовались.



Ключевые слова: виртуальное общение, невербальные средства, невербальная форма, лингвистическое и нелингвистическое общение, жесты, кинестетика, жесты, мимика, такесики.

Abstract. In World linguistics, in particular in Uzbek linguistics, the study of nonverbal means of speech communication (various states in the voice, gestures, facial expressions and posture movements) was carried out in different aspects of the language. The realities of modern life show that in all societies of the current world, communication is characterized by being extremely free, unexpected and far from the rules of language. In this, the role of nonverbal tools has grown more than ever, and they began to take on a huge pragmatic load. In particular, in their virtual communication, nonverbal tools remain unnoticed by researchers. Mzakur's paper provides a brief overview of paralinguistic tools, and reveals the degree and significance of their study. The appeal also extensively analyzed nonverbal forms. Also discussed are linguistic and non-linguistic relations, interaction and contradictions between them, the possibility of creating a certain establishment. In the process of communication, the issue of properties of nonverbal means is also covered. In addition, forms of treatment have also been given in Uzbeks, which have long been composed and used in the process of communication and intervention.

Key words: virtual communication, nonverbal means, nonverbal form, linguistic and non-linguistic communication, gestures.

Tadqiqotning obykti sifatida o'zbeklar nutqiy muloqotining noverbal (fonatsion, kinetik va proksemik) vositalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek paralingvistik vositalarining genderologik va pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- paralingvistik vositalar shaxsning psixologik, ijtimoiy, milliy-madaniy, ma'naviy va jinsiy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy muloqotning zaruriy komponenti ekanligi dalillangan;
- virtual muloqotda noverbal vositalarining nutqiy vaziyat bilan bog'liq ma'nolari ochib berilgan;
- jinsiy xoslangan o'zbek paralingvistik vositalarining aksiologik vazifa bajarishi, vaziyat, holat va insonlarning xarakter xususiyatlarini ijobiy yoki salbiy baholash imkoniyatlari ochib berilgan;
- o'zbeklar muloqotidagi paralingvistik vositalarining genderologik va pragmatik tahlili asosida erkak va ayollarga xos bo'lgan noverbal vositalarning jamiyat hayotidagi madaniy me'yorlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- paralingvistik vositalar milliy xususiyatlarni o'zida gavdalantiruvchi, urf-odatlar, rituallar, adab xatti-harakatlari bilan aloqador bo'lgan nutqiy



muloqotning ajralmas uzvi ekanligi hamda o'ziga xos pragmatik mazmun kasb etishi va genderologik xususiyatlari ko'rsatib berilgan;

– aniq misollar asosida nutqiy muloqotda qo'llanuvchi noverbal vositalar fonatsion, kinetik va proksemik noverbal vositalar guruhlariga ajratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalar, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada keltirilgan fikr- mulohazalar shakllanish bosqichida turgan o'zbek funksional tilshunosligini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, o'zbek paralingvistik vositalarining misolida amalga oshirilgan genderologik va pragmatik tahlillar lingvomadaniyatshunoslik, nutq madaniyati, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika fanlari bo'yicha yaratiladigan o'quv qo'llanmalarining mukammallashuvi uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

muloqot jarayonida uzatilayotgan axborotning emotsional-ekspressiv bo'yog'ini yetkazishda, uning tushunarli va ta'sirli bo'lishini ta'minlashda lingvistik birliklar bilan bir qatorda paralingvistik vositalarning o'rni hamda ularning virtual muloqotda noverbal vositalarning yoritishdagi xulosalaridan "A- 1-126. Uzluksiz ta'limda o'quvchilar til kompetentligini shakllantirishning zamonaviy usullari" davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 202- yil 10-fevraldagi 89-03-815-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilar til kompetentligini shakllantirishda nafaqat lisoniy birliklar va ularning voqelanish usullari haqidagi bilimlar, balki ularga yondosh bo'lgan paralingvistik vositalar hamda ularning muloqot jarayonidagi ahamiyati haqidagi bilimlari ham muhimligi aniqlangan.

Hozirgi kunda virtual muloqot faqat yangi aloqa kanalini hosil qilmasdan, balki yosh avlod ongi shakllanadigan o'ziga xos sotsiomadaniy muhit ham hisoblanmoqda. Internetdagi muloqot akti yozma-suhbat shaklida kechganda ideogrammalardan foydalanish ko'p kuzatiladi. **Ideogramma** (grekcha εἶδος — g'oya va γράμμα — yozuv belgisi, harfdan olingan) - muallifning muayyan g'oyasiga mos keladigan yozuv belgisi yoki shartli tasvirni bildiradi. Ideogrammalar fikrlarni ifodalash uchun xizmat qilib, so'zlar va harflarning



to'laqonli almashtiriluvchan shakliga aylanadi. Ideogramma, piktogrammadan farqli ravishda, nafaqat tasvirlangan tushunchani, balki u bilan bilvosita bog'liq tushunchalarni ham belgilashi mumkin (masalan, ko'pgina muharrir dasturlarida disket tasviri fayl saqlash mazmunini ifodalashi mumkin. Emodzilarning quyidagi xususiyatlarini qayd etishimiz mumkin:

1. Emodzilar ideogrammaning bir turi sifatida qaralishi mumkin.
2. Emodzilar nafaqat til vositalarini tejashga, balki nutqqa ekspressiya berishga, "qabul qiluvchi - muloqotchi" tizimini takomillashtirishga va haqoratli leksika ishlatilishini qisqartirishga mo'ljallangan degan taxminlar mavjud. Bugungi kunda emodzilar muayyan tizimni hosil qilgan va va nafaqat hissiyotlarni, balki turli shaxslar, buyumlar va abstrakt tushunchalarning aniq belgilarini ham qamrab oladi.
3. Ba'zi hollarda emodzilar implitsit konnotatsiyalarni bildirishga, ma'noli urg'ularni joylashtirish va kuchaytirishga yordam beradi.
4. Emodzilarda pretsedentlik va madaniy tolerantlik o'zaro chambarchas bog'langan bo'ladi.
5. Emodzilar e'tiborni tez jalb qiladi, bu esa ularni yoshlar uchun jozibali qiladi.
6. Emodzilar virtual media makonini shakllantiruvchi axborot obrazlari tarkibida ta'sir ko'rsatishning muhim funksiyasini bajaradi.
7. Ideogrammalar norasmiy muhitda - chatlar yoki shaxsiy xarakterdagi xabarlarda keng qo'llanadi. Chunki muloqotning emotsional xususiyatlarini yetarlicha ifodalash va to'g'ri yetkazish uchun zarur hisoblanadi.

Hozirgi kunda internet faqat ma'lumotlarni uzatish usuli emas, balki doimiy ravishda tezlashayotgan hayot tempi sharoitida insonning dunyoda yo'nalishini belgilovchi muhim vositalardan biri sanaladi. Internet - bu faqat elektron signallar orqali muloqotni vositachilik qiladigan yangi aloqa kanali emas, balki muloqotning barcha jihatlariga, jumladan, uning asosiy vositasi bo'lgan tilga ta'sir o'tkazadigan yangi sotsiomadaniy muhit sifatida baholanmoqda. Hozirgi kunda yozma-suhbat nutqining asosini emodzi. Ya'ni elektron xabarlarda va veb-sahifalarda g'oya yoki hissiyotni ifodalash uchun ishlatiladigan ideogrammalar va smayliklar tili tashkil etadi. Smayl (angl. smile 'tabassum') yoki emotikon (angl. emoticon - emotion 'hissiyot' va icon 'piktogramma' so'zlaridan olingan akronim) deganda harflar, raqamlar, tinish belgilari va h.k. dan iborat bo'lgan belgi tushuniladi, u yozma nutqda ma'lum bir tushuncha yoki hissiy munosabatni bildiradi. Smayl muxbirlikda ishtirok etuvchilar qo'llaydigan tildan qat'iy nazar, uning grammatik qoidalariga bo'ysunmaydi va xalqaro tushuncha hisoblanadi. Smaylning asosiy maqsadlaridan biri og'zaki nutqda mimika va intonatsiya orqali uzatiladigan noverbal ma'lumotlarni (hissiyotlarni) yozma ravishda ifodalashdir.

Virtual muloqotda ham oddiy muloqot jarayoni kabi muayyan bosqichlar mavjud. Odatdagi nutqiy muloqot bir necha bosqichlarga bo'linadi. Bular:



nutqiy muloqotning boshlanishi (salomlashish), nutqiy muloqotni saqlash (suhbat jarayoni) va nutqiy muloqot yakuni (xayrlashish). Salomlashish ham, xayrlashish ham ma'naviy tamoyillarga asoslanadigan xatti-harakat shakli, nutq odobi unsuri. Har qanday nutqiy muloqot turi salomlashish bilan boshlanib, xayrlashish bilan yakunlanadi. Salomlashish bu madaniy va ijtimoiy munosabatlarni o'zida aks ettiruvchi harakat. Suhbatning qanday samara berishi, qanday davom etishi salomlashish jarayoni, usuliga bog'liq. Xayrlashish ham suhbatda suhbatning yakuni sifatida bir qator o'ziga xos vazifani o'taydi: birinchidan, bu odatdagi odobga rioya etish; ikkinchidan, kommunikativ aloqani yakunlovchi bir harakat[5]. Virtual muloqot jarayonida ham salomlashish va xayrlashish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichlarni ifoda etuvchi noverbal vositalar ham shakllangan hamda milliy-madaniy-ijtimoiy muhit bilan aloqadorlikka ega. Ya'ni, o'zbek tilida aynan salomlashish va xayrlashishga oid stikerlar ham ishlab chiqilgan. Bugungi kunda virtual muloqot jarayonida qo'llanuvchi noverbal grafik vositalar – emodjilar, stikerlar, logogrammalar, ideogrammalar tizimi shakllangan va o'ziga semiotik tizim deb aytishimiz mumkin. Chunki bu birliklarda ham til belgilari kabi shartlanganlik, shakl va mazmun jihatlari mavjud.

Axborot texnologiyalari davrida ideogrammalar maktab o'quvchilari va talabalarning internet hayotiga shunchalik chuqur kirib bordiki, deyarli barcha ijtimoiy tarmoqlar va messengerlarga smayliklarni kiritish imkoniyati qo'shildi. Ko'plab yigit-qizlar endi ularsiz muloqot qilishni tasavvur qila olmaydi. Har kuni butun dunyo bo'ylab mobil ilovalar yordamida taxminan 6 milliard emodzi yuboriladi va qabul qilinadi. Amerikaning "Global til monitoringi" fondi ma'lumotlariga ko'ra, emodzilar foydalanuvchilarning fikrlarini ifodalash uchun tobora ko'proq xizmat qiladi va so'zlar va harflarning to'laqonli almashtiriluvchan shakliga aylanadi. Hozirgi kunda kompyuterlar va mobil elektron qurilmalar minglab emodzi belgilarini taniydi. Emodzilarning tarixi 1990-yillardan boshlanadi, shu paytda yaponiyalik NTT Docomo kompaniyasi xodimi Sigetaka Kurita peyjer va elektron pochta orqali muloqotni hissiyotlarni ifodalovchi ramzlar bilan to'ldirish mumkinligini payqadi. Smartfonlar davri boshlangach, emodzilar soni bir necha yuzga yetdi. Yaponiyalik olimlarning tadqiqotlari natijalari ko'rsatganidek, biz bir-birimizga yuboradigan smayliklarni miyamiz haqiqiy tabassumlar sifatida qabul qiladi. Insonning kayfiyati o'zgaradi va u ma'lum bir stiker namoyish etayotgan hissiyotlarni boshdan kechira boshlaydi. Emodzilar noverbal muloqot usuliga aylanadi. Shunday qilib, insonning idrok etishida smayliklar - bu so'zlar emas, balki vizuallashtirilgan hissiyotlar bo'lib, ular xabarining ma'nosini muloqotchiga yetkazishda juda muhim rol o'ynaydi. Emodzilar telefon orqali suhbatdagi ovoz ohangi yoki shaxsiy muloqotdagi imo-ishoralar va yuz ifodalari bilan bir xil vazifani bajaradi.



Internetdagi muloqot matnlarni yozma ravishda qayd etishni taqozo qilsa-da, onlayn rejimdagi muloqot foydalanuvchilar tomonidan suhbat sifatida qabul qilinadi va ular qandaydir tarzda uni suhbat uchun odatdagi ogʻzaki shaklga yaqinlashtirishga harakat qiladilar. Yana shu muhimki, emodzi tilning vositalarini tejashdan koʻra, nutqni ekspressiya bilan toʻldirish, "qabul qiluvchi – kommunikator" tizimini takomillashtirishga moʻljallangan. Bundan tashqari, yoshlarning virtual muloqotida smayliklarni qoʻllash haqoratli soʻzlarni ishlatishni kamaytirishga yordam berishi aniqlandi. Yaqinda oʻtkazilgan tadqiqotlardan birida Instagram (fotosuratlar va videolarni almashish uchun ilova, ijtimoiy tarmoq elementlariga ega) ishlab chiqaruvchilari foydalanuvchilar orasida sleng soʻzlarni ishlatish sezilarli darajada kamayganini, chunki endi ular emodzilarni afzal koʻrishlarini aniqlashgan. Aynan shu virtual maydonda emodzi tili universal muloqot vositasiga aylandi. Kompaniyaning hisobotiga koʻra, Instagramdagi barcha izohlarning deyarli 50%i bir yoki ikkita stiker bilan birga keladi. Eng mashhurlari - bu xursandchilikni ifodalovchi smayliklar (qiyiq koʻz bilan qarash, oʻpish, tabassum va kulgi): ularni muloqotda foydalanuvchilarning 44,7% dan ortigʻi qoʻllaydi. Shuningdek, odamlar bir-biriga koʻpincha xafa boʻlgan va gʻazablangan yuzlar, yurakchalar, turli xil imo-ishoralar va romantik rasmlarni yuboradilar. Dasturiy taʼminot ishlab chiqaruvchilari hatto maxsus kastom klaviatura emodzi - Emojimo yaratilgan.

Uning asosiy vazifasi - matnni smayliklarga tarjima qilish. Dastur quyidagicha ishlaydi: foydalanuvchi matnni kiritadi va klaviatura uni sinxron ravishda skaner qiladi va soʻzlarni rasmlarga tarjima qiladi. Shunday qilib, 2,5 mingdan ortiq soʻz taniladi.

Emodzilar nisbatan salbiy fikrlar ham mavjud. Ular taʼsirida yosh avlodda badiiy nutq mahorati yoʻqoladi, til qobiliyatlari pasayadi, deb taʼkidlanadi. Chunki til muloqotning eng muhim vositasi ekanligini inkor etib boʻlmaydi. Virtual muloqot diskursiga emotikonlarning kirib kelishi bilan, bir tomondan, ekspressiyani ifodalash uchun grafik vositalarni boyitish, boshqa tomondan esa, gapirish vositalarini qashshoqlashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shuningdek, muloqotda smayliklarni koʻp ishlatish nutq va intellekt darajasi pasayishi bilan ham bogʻlanadi-betlar]. Lekin ayrim tadqiqotchilar emodzilarni ishlatish haqida shunchalik pessimistik prognozlar berish kerak emas, deb hisoblashadi. Chunki ramzlar har doim lingvistik kommunikatsiya bilan parallel yoki birga mavjud boʻlgan, matematik mantiqda yozuvlarni samarali qisqartirib va navigatsiya uchun koʻrsatmalarni soddalashtirgan, bular kam joy egallaydi. Emodzilar, bular ramzlar toʻplami emas, balki qurilmalar oʻrtasida lingvistik boʻlmagan kontentni uzatishning alohida texnologiyasi boʻlgan, oʻz funksiyasiga ega. Bu funksiya tilni toʻldirishdan, anʼanaviy nutqni almashtirishdan iborat. Emodzilarni ishlatish



xavfli hodisa emas, ammo shuni tushunish kerakki, paralingvistik ramzlar so'zlarning o'rnini to'liq kompensatsiya qila olmaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, virtual muloqot ham oddiy muloqot kabi muayyan bosqichlarga, o'zining modeliga ega. Unda verbal va nonverbal vositalar birday ahamiyatli. Virtual muloqot jarayoni ham oddiy, bevosita muloqot jarayoni kabi milliy-madaniy, pragmatik, psixolingvistik, sotsial omillar ta'sirida muayyan shaklga ega bo'ladi. Ya'ni bu jarayonda ham yozma suhbat olib borayotgan kommunikatorlarning Yoshi, jinsi, madaniyati, ijtimoiy kelib chiqishi, psixologiyasi kabi omillar muayyan darajada rol o'ynaydi. Bu xususiyatlarni turli ijtimoiy-madaniy qatlam kishilari nutqiy jarayonlari tahlili misolida o'rganish, nonverbal grafik vositalarning shakliy va mazmuniy, funksional jihatlarini tadqiq etish dolzarb vazifalardan sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Байкулова А.Н. Повседневное деловое общение: коммерческий чат, его специфика и роль в организации быта горожан // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Филология. Журналистика. 2023. Т. 23, вып. 1. С. 11–16 Izvestiya of Saratov University. Philology. Journalism, 2023, vol. 23, iss. 1, pp. 11–16 <https://bonjour.sgu.ru>
2. Бергельсон М. Б. Языковые аспекты виртуальной коммуникации // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19, Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2002. № 1. С. 55–67
3. Глобальный мониторинг языка [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.languagemonitor.com>
4. Маматов А. Наиболее важных функций языка/Тилнинг энг муҳим 100 та функцияси. – Тошкент, 2014. – 22 б.
5. Тоирова Г., Зарипова А. Нутқий мулоқотнинг яқуни.// Filologiyaning dolzarb masalalari. – Qo'qon, 2020. – B. 118-120.
6. Yuasa M., Saito K., Mukawa N. Brain activity when reading sentences and emoticons: an fMRI study of verbal and nonverbal communication // Electron. commun. Japan. 2011. № 94 (5). P. 17–24.
7. Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics. - Budapest, 2006.
8. Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2020.



TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ANALYSIS OF CANDIDATE GENES AND THEIR FUNCTIONS BASED ON QTLS ASSOCIATED WITH ABIOTIC STRESS TOLERANCE IN GOSSYPIUM HIRSUTUM L. VARIETIES Kurbanov Abrorzhon Yorkinovich¹ Mamedova Feruza Fakhriddinovna¹ Boboyev Sayfulla G'ofurovich² Djumayev Sanjar Shukurovich¹ Isayeva Rayxona Madaminjon qizi³	3
2.	THE MANIFESTATION OF THE SECURITY PHENOMENON IN THE CONTEXT OF THE WELFARE STATE Xidirov Suxrob Norbo'tayevich	8
3.	TALABALAR BILAN O'TKAZILADIGAN SPORT VA SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARINI MODELLASHTIRISH METODIKASI Dushabayev D. Sh.	13
4.	"Ko'zgu oldidagi odam" romanida tush motivi Nurmuhammad Azizov	18
5.	KASBIY TA'LIM TIZIMIDA FIZIKA FANINI O'QITISHNING METODOLOGIK ASOSLARI G'aniyeva Yulduzxon G'ofurjon qizi Abduvoitova Madinabonu Adxamjon qizi	22
6.	KOMMUNIKATSIYA VA VIRTUAL MULOQOT Nizomova Zarifa Kamoliddin qizi	25